

---

## HOKIM QABULIDA MUROJAATLARGA YeCHIM IZLANDI

Bugun Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev aholi vakillari bilan uchrashdi. Unda fuqarolarni qiynab kelayotgan muammolar atroflicha muhokama etildi.

Qabulda asosan, fuqarolarning ishga joylashish, yo'llarni ta'mirlash, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, eskirgan transformatorlarni almashtirish, imtiyozli kredit olish, davolanish uchun imtiyozli yo'llanma, moddiy yordam olish, uy-joy ajratilishi, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va boshqa qator masalalarga oid murojaatlar qabul qilindi.

Qabul davomida murojaatlarning aksariyati shu joyning o'zida ijobiy hal etildi. Yechimi ma'lum vaqt talab etadigan murojaatlar bo'yicha tegishli tashkilotlarga aniq ko'rsatmalar berilib, ijrosi nazoratga olindi.

2023-11-14 15:57:55